



MAHALLIY VA XORIJIY FITRATSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI HAMDA TARAQQIYOTI

Usmonov G'iyosiddin Murotjonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida stajyor-

o'qituvchisi. E-mail: gusmonov@gmail.com

Tel: +998999988852

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek madaniyati, fan va ta'lim, adabiyot sohasining yirik vakili, qomusiy bilim va betakror iste'dod sohibi, nazariyotchi adabiyotshunos va tilshunos, betakror dramaturg, zabardast shoir va nosir, jangovar publitsist, jonkuyar noshir, hozirjavob jurnalist, iqtidorli davlat va jamoat arbobi, mohir o'qituvchi va ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat haqida yurtimiz adabiyotshunoslari bilan birga xorijda ham ba'zi olimlar izlanishlar olib borishganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qomusiy bilim, dramaturg, ma'rifatparvar, adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik, xorij fitratshunosligi, mahalliy fitratshunoslik.

Аннотация: В этой статье рассказывается о крупном представителе узбекской культуры, науки и образования, литературы, энциклопедических знаний и уникального таланта, теоретике, литературоведе и лингвисте, уникальном драматурге, великом поэте и писателе, боевом публицисте, страстном издателе, действующем журналисте, талантливый государственный и общественный деятель, искусный педагог и просветитель Абдурауф Фитрат вместе с литературоведами нашей страны, некоторые ученые проводили исследования за рубежом.

Ключевые слова: энциклопедические знания, драматург, просветитель, литературоведение, зарубежное изучение Фитрата, местное изучение Фитрата.

Annotation: This article discusses about Abdurauf Fitrat, a major representative of XX century Uzbek culture, science and education, literature, encyclopedic knowledge and unique talent, theoretician, literary critic and linguist, unique playwright, great poet and writer, fighting publicist, passionate publisher, current journalist, a talented state and public figure, skilled teacher and enlightener, and the fact that along with literary scholars of our country, some scholars abroad conducted researches about him.

Key words: encyclopedic knowledge, dramatist, enlightener, literary studies, literary criticism, study of Fitrat abroad, local study of Fitrat.

XX asr o'zbek madaniyati, fan va ta'lim, adabiyot sohasining yirik vakili, qomusiy bilim va betakror iste'dod sohibi, nazariyotchi adabiyotshunos va tilshunos, betakror dramaturg, zabardast shoir va nosir, jangovar publitsist, jonkuyar noshir, hozirjavob jurnalist, iqtidorli davlat va jamoat arbobi, mohir o'qituvchi va ma'rifatparvar Abdurauf Fitratdan xalqimizga boy meros qolgan. Uning "Sayha",





“Qon”, “Begijon”, “Chin sevis”, “To‘lqin”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Ro‘zalar” “Abulfayzxon”, “Arslon”, “Hind ixtilolchilari”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izxon”, “Abo Muslim”, “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”, “Muxtasar Islom tarixi”, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, “Qiyomat”, “Bedil”, “Aruz haqida”, “Amir Olimxonning hukmronlik davri”, “Adabiyot qoidalari”, “Turk tili”, “Najot yo‘li” kabi qator asarlari haqida yurtimiz adabiyotshunoslari bilan birga xorijda ham ba‘zi olimlar izlanishlar olib borishgan. To‘g‘ri, biz ular haqida ilgari yetarli ma‘lumotlarga ega emas edik, ammo endi hozirgi shiddatli va tezkor zamondagi texnologik imkoniyatlar, zamonaviy internet manbalari tufayli ularni bilib, o‘rganib boryapmiz. Aytish kerakki, totalitar mustabid tuzum hukmronligi davrida xorijlik adabiyotshunos olimlarga barcha jadid namoyandalari qatori Fitrat hayoti va ijodini ham o‘rganish cheklangan edi. U haqidagi ma‘lumotlar qattiq sir saqlanar edi. Ammo o‘tgan asrning 90-yillarida yuz bergan “qayta qurish”, undan so‘ng milliy mustaqillik bosqichida vaziyat tubdan o‘zgarib, Fitrat va boshqa jadidlar hayoti va merosini xolisona, adolatli o‘rganish imkoni paydo bo‘ldi. Bu holatni yapon olimi Hisao Komatsu shunday izohlaydi: ***“Perestroika opened the way for the discovery and new interpretation of the modern history of Soviet Central Asia. In recent Central Asian publications, we can find a lot of new facts and source materials relating to issues and individuals that were absolutely neglected or treated as a taboo subject”***. (Qayta qurish Sovet davridagi Markaziy Osiyo zamonaviy tarixini kashf etishga va unga yangicha nigohlar bilan nazar tashlashga yo‘l ochib berdi. Markaziy Osiyoning so‘ngi nashrlarida biz ko‘pgina yangi dalillar va nomlari haqida gapirish mumkin bo‘lmagan bir qator shaxslarga aloqador ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.)

Hisao Komatsu o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan so‘ngi yillarda jadid adiblari haqida olib borilgan kuzatishlar va ijodiy izlanishlarni ko‘rib chiqib, ular haqida “Association for the advancement of Central Asian research” jurnalining 1992-yilgi 5-sonida maqola e‘lon qilgan. Jadidlarning faol namoyandalardan bo‘lgan Abdurauf Fitrat haqida xorijdagi olimlar qarashlari va ijodi tahlili muhim, o‘rganilishni talab qiliadigan jarayon sifatida qaralganda, ushbu mavzuning Edvard Olvort, Adib Xalid, Shon Tomas Lion, Choy Van Vu, Edvard Said, Lidenberger, Fatma Ashik, Hisao Komatsu va boshqa adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilganligi jiddiy e‘tiborni tortadi.





Ma'lumki, XX asr boshlarida Turkistonda mavjud siyosiy-ijtimoiy voqealar o'zbek adabiyotiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Yetmish yildan ortiq vaqt davomida sovet senzurasini sababli milliy tiklanishda yetakchilik qilgan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy singari ijodkorlar yaratgan badiiy asarlar tagzaminidagi chin mohiyat – ozodlik va erkinlik mavzusidagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalar butunlay inkor qilinib, ularga salbiy munosabat bildirilayotgan bir paytda Amerika o'zbekshunoslari birinchilardan bo'lib bu haqiqatlarning asl mohiyatini targ'ib qila boshladilar. Ammo achinarlisi, biz xorij olimlari tadqiqotlarini original manbalardan emas, rus tiliga qilingan noto'g'ri tarjimalar asosida tahlil qilib, ularning “qarashlarini g'oyaviy va mafkuraviy dushmanlarimizning kirdikorlari va tuhmatlari, burjua g'animlarimizning nayranglari deb baholadik”¹.

Abdurauf Fitrat ijodiy faoliyatiga Sho'rolar davrida millatchi, jadid tamg'asi bilan munosabatda bo'lib kelingani ma'lum. Ham jismonan, ham ma'nadan qatag'onga uchragan Fitrat asarlarini o'qib-o'rganish, yosh avlodga o'rgatish ishlari faqat Istiqlol tufayli yuz berdi. Ungacha Fitrat ijodiy faoliyati haqida buyuk davlat arbobi Fayzulla Xo'jaev,² o'zbek va tojik xalqining atoqli adibi Sadridin Ayniy,³ shuningdek, A.Sa'diy,⁴ Hamid Olimjon, Hodi Zariflarning⁵ ilmiy-tanqidiy ruhda e'lon qilgan maqolalarida ayrim ma'lumotlar berilgan. Masalan, Fitratni ko'rgan va bilgan H.T.Zarifov u haqida shunday yozgan: “Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, O'zbekistondagi hozirgi qo'lyozmalar fondlari, folklor arxivlarining yuzaga kelishida, qadimiy osori atiqalarning to'planishida o'zbek olimlari va ziyolilarining xizmatlari beqiyosdir. Mana Fitrat domlani oling. Bu mo'tabar shaxsning mazkur sohadagi xizmatlari minglarga tatiydi. Ig'vo va tuhmatlar bilan g'ayriqonuniy ravishda qatl etilgan Fitrat domla bu sohada shunchalar ko'p ish qildiki, uning faoliyatiga barcha ilmiy va adabiy ijodini soqit qilingan holda baho berilganda ham, madaniy merosimizni

¹ Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг ўрганилиши: ўзига хос ёндашув ва карашлар / Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йўналишлар ва ёндашувлар. Республика ёш олимларининг аънаваний иккинчи илмий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 187.

² Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. 1-том. – Т., 1976. – Б.98-99.

³ Айний С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – С.40-102.

⁴ Саъдий А. Ўзбек ёш шоирлари. Фитрат. – Туркистон. – 1923. – 10-12 декабрь.

⁵ Олимжон Х. Фитратнинг адабий ижоди ҳақида. – Совет мактаби. – 1936. – № 5. – Б.53-71.





to'plashdagi xizmatlari bilan tariximizdan mustahkam o'rin olgan bo'lardi. ...ammo uning xizmatlari hali ham munosib baholangan emas".⁶

Istiqlol davrigacha ham Fitrat nomini ayrim xorijiy yurtlarda tilga olishgan, ijodiga oid kitoblar nashr qilishgan va tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yurtimizda milliy istiqlol qo'lga kiritilgach, ko'pgina jadidlar va millat fidoyilari qatori Abdurauf Fitrat nomi ham to'liq oqlanib, e'lon qilindi. Uning asarlari olti jild ko'rinishida "saylanma" holda chop qilinib, xalqqa yetkazildi. Ba'zi asarlari alohida-alohida holda ham nashr qilindi.

Yurtimizda Fitrat ijodiy merosi yuzasidan turli sohalar doirasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bular quyidagi yo'nalishlardan iborat:

1. Adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik bo'yicha.⁷
2. Folklorshunoslikka oid.⁸
3. Tilshunoslik bo'yicha.⁹
4. Ijtimoiy-falsafiy, tarixiy-huquqiy qarashlari.¹⁰
5. Pedagogik qarashlari.¹¹
6. Dramaturgiyadagi mahorati.¹²

Mazkur tadqiqotlar Abdurauf Fitrat ijodiy merosining mamlakatimizda o'rganilish tarixini belgilab ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Demak, yurtimizda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, falsafa, tarix, huquqshunoslik,

⁶ Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ходи Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Т.: "SHAMS - ASA" МЧЖ босмахонаси. – Б.52.

⁷ Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1996; Жўракулов У. Х. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. (Ўзбек адабиёти тарихига оид тадқиқотлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Ганиев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1998; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озодлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1999.

⁸ Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ходи Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Т.: "SHAMS - ASA" МЧЖ босмахонаси. – Б.51; Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиши тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018.

⁹ Қурбонова М.М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1993; Саидов Ё.С. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2001

¹⁰ Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев: Автореф. дисс. док-ра философских наук. – Т., 1993; Гойибова Ш.О. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: Фалсафа фан. номз... дисс. – Т., 1996; Эргашева М. Абдурауф Фитратнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари: Юридик фан. номз... дисс. – Т., 2002.

¹¹ Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари: Пед. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Абдужалилова Ш.А. А.Фитратнинг оила тарбиясига оид қарашлари: Пед. фан. номз... дисс. – Т., 2005.

¹² Ганиев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1998; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озодлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1999.





pedagogika singari qator ijtimoiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishida Fitratning xizmatlari katta.

Hozirgacha yurtimizda bu borada o'ndan ortiq tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotda esa ilk bor Fitrat ijodining hozirgacha xorijlik olimlar tomonidan o'rganilib kelingani, asarlarining nashri va g'oyaviy-badiiy nuqtai nazardan o'rganilishi masalalariga diqqat qaratildi.

Abdurauf Fitrat haqida zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib Erik Karimov yozdi.¹³ Undan so'ng birin-ketin Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Ahmadjon Aliev, Begali Qosimov, Oxunjon Safarov kabi taniqli adabiyotshunoslarning u haqidagi qimmatli kitob va maqolalari e'lon qilindi.¹⁴

Taniqli o'zbek fitratshunosi H.Boltaboyevning "Fitrat va jadidchilik" monografiyasi tarkibidan o'rin olgan "Xorijiy fitratshunoslikdan lavhalar" qismida Abdurauf Fitrat hayoti va ijodining xorijda birmuncha o'rganilganligi haqida e'tiborli ma'lumotlar keltirilgan. Unda amerikalik Edvard Olvort, fransiyalik Elen Karrer d'Enkaus, yaponiyalik Hisao Komatsularning Fitrat to'g'risidagi maqolalari tarjimai ham berilgan.¹⁵

Keltirilgan dalillardan shu anglashiladiki, demak, fitratshunoslik chegarasi ikki katta hududga bo'linadi:

1. Xorij fitratshunosligi.
2. Mahalliy fitratshunoslik.

Agar xorij fitratshunosligiga hissa qo'shgan Edvard Olvort, Adib Xalid, Shon Tomas Lion, Choy Van Vu, Edvard Said, Lidenberger, Baldauf xonim va boshqalar tadqiqotlari bilan o'zbek olimlaridan Izzat Sulton, Ahmad Aliev, Begali Qosimov, Hamidullo Boltaboyev va boshqa yetuk olimlarning bu boradagi ilmiy izlanishlari o'zaro qiyoslab o'rganilsa, xorijlik va o'zbek fitratshunoslari bajargan tadqiqotlar o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash, ularni tahlil qilish orqali adabiyoshunoslik va

¹³ Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: Фан, 1979. – 120 с.

¹⁴ Каримов Н. Мавлоно Фитрат. – Фан ва турмуш. – 1990. – №7; Шарафуддинов О. Фитрат. – Ёшлик. – 1990. – №5; яна: Абдурауф Фитрат ва "Ҳинд сайёҳи" кассаси // Сардафтар саҳифалари. Мақолалар, хотиралар. – Т.: Ёзувчи, 1999. – Б.114-147; Алиев А. Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат. – Т., 1991; Қосимов Б. Маслакдошлар: Бехбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ НМК, 1994. – Б.74; Сафаров О. Исёнкор ва фидойи сиймо (Абдурауф Фитрат ижодида оид кузатишлар). / Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. Мақолалар ва рисоалар. – Бухоро: "Дурдона", 2015. – Б.180-229.

¹⁵ Болтабоев Ҳ. Хорижий фитратшunoslikдан лавҳалар / Фитрат ва жадидчилик. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.225- 273.





tarjima nazariyasi fanlari uchun juda ahamiyatli fikrlarni bilib olish imkoni paydo bo'ladi.

Avvalo, hozircha o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi bo'lgan va milliy ma'naviyatimizga ulkan hissa qo'shgan Abdurauf Fitrat ijodini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarni to'laqonli va yetarli deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, Abdurauf Fitrat ijodiga doir qarashlar va fikr-mulohazalar hali ham aniq bir tartibga solingan, deyish qiyin.

Uchinchidan, Abdurauf Fitrat ijodini o'rgangan xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, ularga doir turli asarlar, ilmiy maqolalar hamda o'quv qo'llanmalar o'zbek adabiyotida deyarli o'rganilmagan.

To'rtinchidan, mustaqilligimiz davrigacha xorijlik olimlar tomonidan Abdurauf Fitrat ijodi bo'yicha qilingan tadqiqotlar o'zining munosib bahosini olmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг ўрганилиши: ўзига хос ёндашув ва қарашлар / Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йўналишлар ва ёндашувлар. Республика ёш олимларининг анъанавий иккинчи илмий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 187.
2. Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1996; Жўрақулов У. Ҳ. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. (Ўзбек адабиёти тарихига оид тадқиқотлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Ғаниев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1998; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озошлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1999.
3. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Т.: “SHAMS - ASA” МЧЖ босмахонаси. – Б.51; Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиши тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018.
4. Қурбонова М.М. Фитратнинг тилшуношлик мероси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1993; Саидов Ё.С. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2001





5. Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев: Автореф. дисс. док-ра философских наук. – Т., 1993;
6. Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари: Пед. фан. номз... дисс. – Т., 1998; Абдужалилова Ш.А. А.Фитратнинг оила тарбиясига оид қарашлари: Пед. фан. номз... дисс. – Т., 2005.
7. Ганиев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1998; Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озодлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1999.
8. Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: Фан, 1979. – 120 с.
9. Каримов Н. Мавлоно Фитрат. – Фан ва турмуш. – 1990. – №7; Шарафуддинов О. Фитрат. – Ёшлик. – 1990. – №5; яна: Алиев А. Абдурауф Абдурахим ўғли Фитрат. – Т., 1991; Қосимов Б. Маслақдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ НМК, 1994. – Б.74; Сафаров О. Исёнкор ва фидойи сиймо (Абдурауф Фитрат ижодига оид кузатишлар). / Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. Мақолалар ва рисоалар. – Бухоро: “Дурдона”, 2015. – Б.180-229.
10. Болтабоев Ҳ. Хорижий фитратшуносликдан лавҳалар / Фитрат ва жадидчилик. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.225- 273.

